

UO'K(UDC, YDK):82.09

NAZAR ESHONQUL PROZASINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI³²

Safarova Dildora Baxtiyor qizi

Tayanch doktorant

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Email: safarova.dildora@gmail.com

Tel.: +99891-549-62-67

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o'zbek adabiyotida zamonaviy uslubiy izlanishlarga asos solgan, hikoya janrining serqirra imkoniyatlarini to'liq namoyon etgan ijodkor – Nazar Eshonqulning nasriy asarlariga bag'ishlangan. Tadqiqot markazida adibning badiiy tilga, ayniqsa, stilistik va sintaktik vositalarga bo'lgan individual yondashuvi tahlil qilinadi. Nazar Eshonqul nasrining badiiy jozibadorligi, avvalo, uning til orqali yaratilgan ifoda uslubida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada yozuvchining til vositalari, ya'ni inversiya, ritorik so'roq gaplar, ellipsis, emotsional gaplar, antiteza, qarama-qarshi ma'noli birliklar, o'xshatishlar, stilistik takrorlar kabi sintaktik va stilistik figuralardan samarali foydalangani ilmiy asosda ochib beriladi. Yozuvchining "Yalpiz hidi", "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi" kabi hikoyalarida uchraydigan matn parchalari lingvopoetik tahlil qilinadi. Ularning sintaktik qurilishi, uslubiy vazifasi, qahramon obrazini ochishdagi ahamiyati, matnning semantic va ekspressiv qatlamlarini kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Tahlillar davomida Nazar Eshonqul prozasining o'ziga xosligi shundaki, u har bir til vositasini o'z ijodiy niyati va badiiy maqsadiga muvofiq tanlaydi, ularni psixologik va falsafiy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi. Ayniqsa, qahramonlarning ichki monologi, botiniy iztiroblari, hayotga bo'lgan qarashlari, e'tiqod, ezgulik-yomonlik, adolat-zolimlik kabi ziddiyatli tushunchalar muallifning sintaktik yechimlari orqali chuqur ifodalanadi. Shuningdek, maqolada yozuvchining realism va modernism elementlarini uzviy bog'lagan holda yangi estetik makon yaratgani, milliy adabiy tafakkur va jahon adabiyoti tajribasini uyg'unlashtirgan holda o'ziga xos nasriy uslub shakllantirganiga urg'u beriladi. Nazar Eshonqul nasridagi stilistik va sintaktik vositalar nafaqat badiiy jozibadorlikni oshiradi, balki estetik baho, hissiy ta'sirchanlik va ma'naviy teranlikni ta'minlovchi asosiy qatlamni tashkil qiladi. Muallifning har bir sintaktik birligi obraz yaratishga, psixologik holatni yetkazishga, kontekstni kengaytirishga xizmat qiladi. Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Nazar Eshonqul til orqali estetik g'oyani, sintaksis orqali ichki ma'no qatlamlarini ochib bera olgan badiiy tafakkur egasidir. Ushbu maqola orqali yozuvchining badiiy matn bilan ishlashdagi sintaktik mahorati, stilistik novatorligi va estetik ilg'orlari ilmiy tahlil qilinib, zamonaviy o'zbek nasrining rivojlanish yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

KALIT SO'ZLAR

Stilistika, sintaksis, lingvopoetika, inversiya, antiteza, ritorik so'roq, o'xshatish, ellipsis, emotsional gap, nasriy matn.

Received: March 10, 2025

Accepted: April 4, 2025

Available online: May 2, 2025

³² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Safarova D. Nazar Eshonqul prozasining lingvopoetik xususiyatlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 390-402.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ НАЗАРА ЭШОНКУЛА

Сафарова Дилдора Бахтиёр кизи

Докторант

Самаркандский государственный университет
имени Шарафа Рашидова

Email: safarova.dildora@gmail.com

Тел.: +99891-549-62-67

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена прозаическому наследию одного из выдающихся представителей современной узбекской литературы – Назара Эшонкула, который широко известен своим уникальным стилем и выразительной языковой манерой. В центре внимания в исследовании находятся стилистические и синтаксические особенности его прозы, раскрывающие авторскую индивидуальность и высокую художественную культуру. В статье подробно рассматривается, как писатель использует различные языковые средства для достижения эмоциональной выразительности и смысловой глубины художественного текста. В частности, внимание уделяется таким синтаксико-стилистическим приемам, как инверсия, риторические вопросы, эллипсис, эмоционально окрашенные предложения, антитеза, сопоставление противоположных понятий, сравнения, психологические монологи, а также ритмическая структура текста. Эти элементы проанализированы на примере рассказов «Запах мяты», «Человек, ведущий обезьяну», «Ветер не удержать» и других произведений. Анализ показывает, что каждый синтаксический прием у Эшонкула выполняет особую функцию: усиливает эмоциональное напряжение, раскрывает внутреннее состояние персонажа, передает психологическую глубину событий и философскую насыщенность повествования. Отмечено, что автор соединяет традиционные для узбекской литературы элементы с приемами модернистской прозы, тем самым создавая уникальное художественное пространство, в котором гармонично сосуществуют национальная поэтика и универсальные идеи. Стиль писателя отличается метафоричностью, ассоциативным мышлением, точной речевой характеристикой героев и способностью передавать не только внешний, но и внутренний мир человека. В его произведениях язык становится не просто средством повествования, а полноценным художественным инструментом, формирующим эстетическое восприятие. В работе подчеркнута роль языка как основного выразительного инструмента писателя и показано, как за счет синтаксических решений создается оригинальный стиль, отличающий Назара Эшонкула от его современников. В заключение делается вывод, что проза Назара Эшонкула представляет собой значительное явление в узбекской литературе периода независимости, а его новаторский подход к языку заслуживает пристального внимания исследователей. Статья вносит вклад в дальнейшее изучение лингвопоэтики узбекской художественной прозы, а также служит ценным источником для сравнительно-стилистических и литературоведческих исследований.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Стилистика, синтаксис, лингвопоэтика, инверсия, антитеза, риторический вопрос, сравнение, эллипсис, эмоциональное предложение, прозаический текст.

LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF NAZAR ESHONQUL'S PROSE

Safarova Dildora Baxtiyor kizi

Doctoral student

Samarkand State University

Named after Sharof Rashidov

Email: safarova.dildora@gmail.com

Tel.: +99891-549-62-67

ABSTRACT

This article is dedicated to the prose works of Nazar Eshonqul, a writer who laid the foundation for modern stylistic explorations in Uzbek literature and fully demonstrated the multifaceted possibilities of the short story genre. The research focuses on analyzing the author's individual approach to literary language, particularly his use of stylistic and syntactic devices. The artistic appeal of Nazar Eshonqul's prose is primarily manifested in his style of expression created through language. This article scientifically explores the writer's effective use of linguistic tools, namely syntactic and stylistic figures such as inversion, rhetorical questions, ellipsis, emotive sentences, antithesis, antonyms, similes, and stylistic repetitions. Text passages from the writer's stories "The Scent of Mint," "The Man Led by a Monkey," and "You Can't Catch the Wind" are subjected to linguopoetic analysis. Their syntactic structure, stylistic function, significance in revealing character, and role in enhancing the semantic and expressive layers of the text are examined. The analysis reveals that the uniqueness of Nazar Eshonqul's prose lies in his selection of each linguistic device in accordance with his creative intent and artistic purpose, integrating them with psychological and philosophical thinking. Notably, the characters' internal monologues, inner turmoil, life perspectives, and contradictory concepts such as faith, good and evil, justice and tyranny are profoundly expressed through the author's syntactic choices. The article also emphasizes how the writer created a new aesthetic space by organically combining elements of realism and modernism, forming a distinctive prose style by harmonizing national literary thought with world literature experiences. The stylistic and syntactic devices in Nazar Eshonqul's prose not only enhance its artistic appeal, but also form the primary layer that provides aesthetic evaluation, emotional impact, and spiritual depth. Each syntactic unit employed by the author serves to create imagery, convey psychological states, and expand context. In conclusion, Nazar Eshonqul is recognized as a possessor of artistic thinking who successfully reveals aesthetic ideas through language and layers of inner meaning through syntax. This article scientifically analyzes the writer's syntactic mastery in crafting literary text, his stylistic innovation, and aesthetic advancements, acknowledging them as one of the developmental paths of modern Uzbek prose.

KEY WORDS

Stylistics, syntax, linguopoetics, inversion, antithesis, rhetorical question, simile, ellipsis, emotional sentence, prose text.

KIRISH

Zamonaviy o'zbek nasrida Nazar Eshonqul ijodi o'ziga xos ahamiyat va salmoqqa ega. Yozuvchi 1960-yillarning oxiri va 1990-yillar boshida shakllangan yangi avlod hikoyanavislaridan bo'lib, adabiyotga yangicha ruh va uslub olib kirgan ijodkor sifatida e'tirof etiladi. Uning nasriy asarlari, xususan, hikoyalari va qissalari mavzu va badiiy talqinlarining o'zgachaligi, voqelikka yangicha yondashuvi hamda til va uslubidagi boy ifoda vositalari bilan zamondoshlaridan ajralib turadi. Nazar Eshonqulning "Urush odamlari" (1989), "Momoqo'shiq" (1991), "Yalpiz hidi" (1996), "Maymun yetaklagan odam" (2004), "Shamolni tutib bo'lmaydi" (2005), "Shaftoli guli" (2011) kabi kitoblari va ulardagi hikoyalari o'quvchilar e'tiborini tortib, adabiy jamoatchilikda munozaralarga sabab bo'lgan. Adib ijodini kuzatgan tanqidchilar uning realizm va modernizm unsurlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda, o'zbek nasrida yangi badiiy qirralarni kashf etganini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, yozuvchining uslubi va badiiy tasvir yo'sini an'anaviy realizmdan farq qiladigan darajada yangicha bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot ruhiga xos ma'no qatlamlari zamonaviy janr va uslublar bilan chatishib ketadi. Yozuvchi asarlarida eng ko'p e'tirof etiladigan jihatlardan biri – ularning badiiy tilidir. Nazar Eshonqul qalamiga mansub hikoyalar tili soda va ravon bo'lib, ayni paytda ma'noga boy va ifodali ekanligi bilan ajraladi. Hikoyalardagi obrazlarning fikr va kechinmalari nafis tilda, nozik uslubda yetkaziladi. Bu esa asarlarning o'quvchiga ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Yozuvchi Nazar Eshonqulning hikoya janridagi ko'plab asarlari kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lgan bo'lsa, bu jozibadorlikning asosi, albatta, hikoya tiliga va uslubiga bevosita bog'liqdir. Shunday o'ziga xos badiiy tildagi birliklar va uslubiy vositalarni aniqlash, ularning matndagi vazifasini tadqiq etish mazkur maqolaning asosiy maqsadidir. Mazkur tadqiqot doirasida Nazar Eshonqul nasrining stilistik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali adibning badiiy mahorati sirlarini ochish, uning o'ziga xos uslubini belgilovchi omillarni ko'rsatish imkoni tug'iladi. Maqola davomida Nazar Eshonqul hikoyalaridan olingan misollar yordamida adib qo'llagan ayrim stilistik-sintaktik usullar tahlil qilinadi va umumiy xulosalar chiqariladi.

METODLAR

Maqolada lingvopoetik tahlil, taqqoslama-uslubiy tahlil va deskriptiv (tasviriy) metodlar qoʻllanilib, Nazar Eshonqul nasriga xos stilistik va sintaktik vositalar izchil oʻrganildi. Dastlab, nazariy manbalarda badiiy matn stilistikasi va sintaksisi yuzasidan yoritilgan ilmiy yondashuvlar koʻrib chiqildi. Xususan, A. Abdullayev (Abdullayev A., 1983, 28), M. Yoʻldoshev (Yoʻldoshev M., 2007, 31) kabi tilshunos olimlar asarlarida keltirilgan nazariy tamoyillar tayanchiq sifatida olindi. Keyingi bosqichda yozuvchining bir qator hikoyalari matni lingvopoetik tahlil qilindi: badiiy matnda qoʻllangan sintaktik qurilmalar, uslubiy figuralar va tasviriy vositalar aniqlanib, ularning vazifasi va matn mazmuniga taʼsiri tahlil etildi. Tadqiqot uchun asosan Nazar Eshonqulning eng eʼtiborli hikoyalardan namunalar tanlandi, jumladan: *“Yalpiz hidi”*, *“Maymun yetaklagan odam”*, *“Shamolni tutib boʻlmaydi”*, *“Tun panjaralari”* va boshqalar. Ushbu hikoyalardan olingan parchalar yordamida muallifning sintaktik uslubiga doir xulosalar chiqarildi va ularning nazariy asoslari bilan qiyosiy ravishda muhokama qilindi. Tahlil jarayonida har bir stilistik-sintaktik vositaning matndagi funksiyasi alohida koʻrib chiqildi: gap tuzilishidagi inversiyalar, ritorik savollar, ellipsislar, emotiv (kechinma ifodalovchi) gaplar va badiiy oʻxshatishlarning qoʻllanilishi kuzatilib, ular orqali asarda qanday badiiy effekt yaratilishi tahlil etildi. Shuningdek, Nazar Eshonqul uslubining milliy va universal adabiy anʼanalarga aloqador jihatlarini yoritish maqsadida adib uslubini ilgari oʻrganilgan baʼzi nazariy tadqiqotlar bilan qiyosan muhokama qilish usuli qoʻllandi. Misollarning tahlili yakunida umumlashma xulosalar keltirilib, muallif uslubining oʻziga xos xususiyatlari aniqlab berildi.

NATIJALAR

Maqola tahlillari davomida Nazar Eshonqul nasrining til va uslubiga oid quyidagi oʻziga xos stilistik va sintaktik jihatlar aniqlandi:

• **Ritorik soʻroq gaplar.** Yozuvchi hikoyalarda ritorik savollardan samarali vosita sifatida foydalanadi. Ritorik soʻroq maʼlum javob talab qilmaydigan, lekin tasdiq yoki inkor maʼnosini kuchaytirish uchun beriladigan savol shaklidagi gapdir. Bunday gaplar matnda hissiy-emotsional ruhni kuchaytiradi, qahramonning hayrat,

shubha yoki iztirobini ta'kidlaydi. Nazar Eshonqul hikoyalarida qahramonlar ichki monologida va tasvirchi nutqida ritorik savollar tez-tez uchraydi. Masalan, "Yalpiz hidi" hikoyasida qahramonning xayol kechmishlari ritorik so'roq vositasida ifodalanadi: *"U balki bir hafta oldin qishlog'ining chetidagi to'qayda o'sadigan bo'liq yalpizlarni eslagan va so'ng unutgani uchun, o'sha kuni yuzaga chiqar-chiqmas yana yashiringan – hali o'zi ham nima deb atashni bilmagan botiniy tuyg'ulari va xotiralari bugun kitob o'qib yotganida o'z-o'zidan shuurini band etib, bir zum suvga yashiringan po'kakdek xayoliga lip etib qalqib chiqqan-u, unga yalpiz solingan sho'rva hidini eslatgandir?"* (N. Eshonqul, "Yalpiz hidi"). Ushbu uzun jumla-savol qahramonning ong ostida kechayotgan noaniq hissiyotlarning yuzaga chiqishini ifodalovchi ritorik savol bo'lib, undan hech kimga javob kutilmaydi. Savol shaklida berilgan bu jumla orqali qahramonning botiniy iztiroblari va o'y kechinmalari aniq va ta'sirchan ifodalangan. Ritorik so'roq yordamida muallif qahramon ruhiyatidagi ichki ziddiyat va o'zini o'zi tahlil qilish jarayonini o'quvchi diqqatiga havola etadi. Natijada hikoya matni o'quvchi uchun psixologik jihatdan ta'sirchanroq bo'ladi.

• **Inversiya.** **Inversiya** – gap bo'laklari odatdagi Grammatik tartibining ma'lum maqsadda o'zgartirilishi, ya'ni ular o'rnining almashinuvidir. Badiiy matnda inversiya, odatda, og'zaki nutqqa xoslik baxsh etish, qahramon nutqini jonlantirish va individuallashtirish maqsadida qo'llaniladi. She'riy asarlarda bunday sintaktik usul ta'sirchanlikni oshiruvchi muhim omil bo'lsa, nasriy asarlarda ham u o'ziga xos stilistik vazifani bajaradi. Nazar Eshonqul (N. Eshonqul, 2005, 27) hikoyalarida, asosan, dialoglarda, ba'zan gap bo'laklari odatdagidan teskari tartibda keladi. Masalan, *"Shamolni tutib bo'lmaydi"* hikoyasida keltirilgan quyidagi dialogga e'tibor qilaylik: *"— Bu qishloqda erkak yo'q, — dedi Baynamomo zarda bilan, so'ng yelkasidagi bug'doyni tegirmonga kiraverishda tushirdi. Gapirayotganda ovozi titrab ketdi. Tegirmonchi tilini tishlab qoldi. Baynamomo bir paytlar faqat qishloq emas, butun tog'li xalqning orini ko'targan, nomini chiqargan."* Bu parchada Baynamomo so'zida odatdagi "bu qishloqda erkak yo'q" tartibi saqlanib tursa-da, nutq davomida muallifning matn izohlarida va tasvirida ayrim gap

bo‘laklari inversiya qilinadi (masalan, *“gapirayotganda ovozi titrab ketdi”* kabi qismlarda kesimning oldin kelishi). Yoki *“Maymun yetaklagan odam”* hikoyasida: *“— Yo ‘q, — dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo‘lishi kerak degan ohangda gapirishidan g‘ashim kelib. — Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchalar... nimaiki erkka, ezgulikka zid bo‘lsa, u yomonlikdir, — dedim.* “Ushbu misolda muallifning *“dedim men uning salmoq bilan... gapirishidan g‘ashim kelib”* tarzidagi izoh jumlasini odatiy tartibdan biroz farqli tuzilgan: *“men dedim”* o‘rniga *“— Yo ‘q, — dedim men...”* ko‘rinishida kesim va ega inversiyalangan. Bu usul gap ohangini va qahramonning hissiy holatini (asabiylashganini) yanada yaxshiroq yetkazishga xizmat qiladi (Hakimova M.K., 2004, 51). Umuman, Nazar Eshonqul nasrida gap bo‘laklari odatda me‘yoriy sintaktik tartibda keladi, lekin muallif ba’zi hollarda – xususan, dialoglardagi muallif izohlarida – inversiyaga murojaat qilib, fikrning ta’sirchanligini oshiradi.

• **O‘xshatishlar. O‘xshatish** – ikki narsa yoki hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, birini ikkinchisiga qiyosiy tasvirlash usulidir. Bu eng qadimiy tasviriy san’atlardan bo‘lib, nutqning obrazlilik va ta’sirchanligini kuchaytiradi. Nazar Eshonqul o‘z hikoyalarida original o‘xshatishlar yaratish orqali voqea-hodisalarni yanada jonliroq tasvirlab beradi. Masalan, *“Maymun yetaklagan odam”* hikoyasida qishloqning ahvoli juda ta’sirli o‘xshatish bilan berilgan: *“...endi qishloq birdan minorasi qulagan shahardek g‘arib va notavon ko‘rinardi.”* Ushbu o‘xshatish orqali muallif qishloqni minorasi qulagan shaharga qiyos qiladi – bu tasvir qishloqning vayrona, huvullagan ahvolga kelganini juda aniq va obrazli ifodalab turibdi. Qisqa jumla orqali o‘quvchining ko‘z o‘ngida sinik minorali xaroba shahar manzarasi gavdalanadi va qishloq boshiga tushgan kulfat miqyosi his etiladi. Demak, adib o‘xshatish san’atidan foydalanib, badiiy detallarning ta’sirini oshiradi hamda o‘quvchi tasavvurida yorqin obraz hosil qiladi. Shuningdek, boshqa asarlarda ham Nazar Eshonqul o‘xshatishlarni o‘zgacha tilda beradi: masalan, qahramonning hayoti *“bo‘m-bo‘sh aravaga aylanish”* yoki *“yuragi muzlagan qum singari tozarib borishi”* kabi noodatiy qiyoslar uning prozasiga poetik ohang bag‘ishlaydi (Lotman

Yu.M., 1970). Bunday o'xshatishlar matnda muhim ma'no yukini ko'tarib, asarning falsafiy qatlamini chuqurlashtiradi.

• **Emotsional gaplar. Emotsional-ekspressiv gaplar** – bu so'zlovchining yoki qahramonning kuchli hissiyotga berilgan holatini ifodalovchi, hissiy bo'yoqdor so'z va ifodalarga boy gaplardir. Bunday gaplarda odatda emotsional rangga ega so'zlar, undovlar va murojaat shakllari qatnashadi (masalan: “oh”, “voy”, “eh”, “attang” kabi undovlar, yoki “qaniydi”, “afsus” kabi hissiy so'zlar). Nazar Eshonqul o'z hikoyalarida qahramonlarning kechinmalarini hayajonli va ta'sirchan yetkazish uchun emotsional gaplardan foydalanadi. Ayniqsa, dialoglar va ichki monologlarda bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Misol tariqasida “Maymun yetaklagan odam” hikoyasidagi bahsli suhbatni keltirish mumkin. Unda keksaygan qahramon e'tiqod haqida keskin hissiy ohangda fikr bildiradi: “— *E'tiqod! – dedi u g'ussali ohangda. – Agar bir umr e'tiqod qo'yib, shunga ishonib, kurashib, yonib-kuyib... e'tiqod qo'ygan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz, bunday demasdingiz. Ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan, xuddi yo'ldan chiqib ketgan shaldir-shuldur bo'm-bo'sh aravaga aylanardi... Shumi e'tiqod?! Men bu so'zni ishlatmay qo'yganimga ham qirq yildan oshdi. Bu so'z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvoz ekanki, eshitsam, ko'nglim ayniydi.*” Ushbu nutqda qahramon chuqur alam va nafrat bilan “e'tiqod” tushunchasini inkor etmoqda. Gap ohangidan va tanlangan so'zlardan qahramonning iztiroblari, achchiq tajribasi sezilib turibdi: “puch, yolg'on va puflab shishirilgan shar” kabi ifodalar, “ko'nglim ayniydi” degan keskin ibora uning ichki kechinmalarini yaqqol ifodalaydi. Kuzatilishicha, muallif bu yerda qarama-qarshi ma'noli so'z va tushunchalarni (ezgulik va razolat, yaxshilik va yomonlik) yonma-yon qo'yib, antitezani ham qo'llagan – bu esa nutqning ta'sir kuchini yanada oshirgan (O'rinboyev B., 1990, 38). Mazkur dialogdagi emotsional gaplar orqali Nazar Eshonqul o'quvchiga qahramonning ruhiy iztirobini to'liq his ettiradi, asardagi dramatik ziddiyatni kuchaytiradi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Nazar Eshonqul o'z nasrida tilning emotsional va ekspressiv imkoniyatlarini mohirona ishga soladi. Ritorik so'roqlar, inversiya, o'xshatish, antiteza, ellipsis va emotive gaplar kabi stilistik-sintaktik vositalar yozuvchi asarlarining mazmunini boyitib, badiiy ifoda jihatidan jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

MUNOZARALAR

Yuqoridagi natijalarni kengroq adabiy-nazariy manzara fonida muhokama qiladigan bo'lsak, Nazar Eshonqul uslubi o'zbek adabiyotidagi an'anaviy va zamonaviy tamoyillarning o'ziga xos sintezini namoyish etishini ko'rish mumkin. Yozuvchi bir tomondan realizm maktabiga xos hayotiy voqelikni haqqoniy tasvirlashga intilsa, ikkinchi tomondan XX asrning modern adabiy uslublaridan ijodiy foydalanadi. Uning nasrida psixologizm, ya'ni qahramonlarning ruhiy holatini chuqur tahlil qilishga intilish kuchli bo'lib, bu maqsadda adib stilistik va sintaktik vositalarning eng ta'sirchan turlarini tanlaydi. Masalan, ichki monolog va oqimlarni berishda ritorik savollar va ellipsislar (uch nuqtalar) yordamida ong oqimi usuliga yaqin ifoda usuli yaratiladi – bu modernist adabiyot uslublariga xos xususiyatdir. Bunday uslub Odil Yoqubov (Yoqubov O., 2012, 29), Tog'ay Murod (Tog'ay Murod, 1996, 21) kabi o'zbek yozuvchilarining ayrim asarlarida ham uchrasa-da, Nazar Eshonqul buni yanada jasoratliroq va tizimliroq qo'llaydi. Adibning badiiy tiliga xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotdan ham ilhom singani seziladi: ayrim o'xshatishlar va timsollar milliy tafakkur mahsuli bo'lib, matnga teran ma'no qatlami qo'shadi. Shu bilan birga, jahon adabiyotiga xos falsafiy umumlashmalar, ramziy obrazlar ham Nazar Eshonqul nasrida o'z aksini topadi. Bu jihatdan uning ijodi umumbashariy g'oyalarni o'zbek adabiy an'alariga uyg'unlashtirgan holda ifodalashi bilan qimmatlidir. Yozuvchi asarlarida milliylik va zamonaviylik uyg'un tarzda namoyon bo'ladi: bir tomonda, tarixiy xotira va milliy ruh ifodasi ("Maymun yetaklagan odam" hikoyasidagi tarixiy fojialar galereyasi bunga misol bo'ladi), boshqa tomonda, butun insoniyatga xos falsafiy muammolar (yaxshilik va yomonlik dialektikasi, e'tiqod va kufr qarama-qarshiligi kabi) ko'tariladi (Yo'ldoshev M., 2008, 46). Nazariy manbalar nuqtayi nazaridan

qaraganda, tilshunos olimlar ta'kidlaganidek, sintaktik usullar (inversiya, antiteza, takror, ritorik so'roq va hokazo) badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim vositadir. Nazar Eshonqul ijodida ushbu nazariy tamoyillar amaliy tasdig'ini topganini ko'ramiz. Masalan, A. Abdullayev (Abdullayev A., 1987, 39) o'zbek tilida ekspressivlikni ifodalash sintaksisiga doir tadqiqotlarida sukut va pauzalardan ham san'atkorona foydalanish mumkinligini aytadi. Nazar Eshonqul hikoyalarida ham ba'zan jimlikni tasvirlash yoki unsaid (tilga olinmagan) ma'noni ifodalash uchun nuqtalar (ellips) qo'llanilib, bu ham xuddi bir kino kadrining to'satdan qotib qolishi kabi tasvir ta'sirini kuchaytiradi. Yoki R. Shukurov (Shukurov R., 2004, 73) sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari haqida so'z yuritgan. N.Eshonqul nasrida esa biz buni unchalik ko'p uchratmasak-da, ba'zi joylarda parallel gap qurilmalari (masalan, qator metaforik jumlar) orqali marom va ohang yaratilganini payqaymiz.

Umuman olganda, Nazar Eshonqul o'z uslubida individual nutqiy makon yaratishga muvaffaq bo'lgan. Uning hikoyalarini o'qiganda, darhol seziladigan o'ziga xos ritm va ohang mavjud: ba'zan sokin va bosiq, ba'zan keskin va hayajonli. Bu ohang asosan sintaksis orqali ta'minlanadi – jumlar uzun-qisqaligi, tinish belgilarining qo'llanilishi, dialoglarning oqimi barchasi asardagi ruhiyatga bo'ysundirilgan. Masalan, dramatik sahnalarda yoki qahramonning ichki to'liqlanish paytlarida yozuvchi qisqa, to'liq bo'lmagan gaplar, kesik iboralardan foydalanib, o'quvchiga ham shu taranglikni his ettiradi. Aksincha, tasviriy-tavsifiy epizodlarda uzun va murakkab sintaktik butunliklar bilan voqelikning keng manzarasini chizadi. Nazar Eshonqul ijodi misolida shuni kuzatish mumkinki, badiiy prozada stilistik-sintaktik imkoniyatlardan puxta foydalanish asarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Yozuvchi o'z asarlarida kuzatilgan bu usullar yordamida nafaqat o'quvchiga estetik zavq bera olgan, balki millatning og'riq va iztiroblarini ham, inson ruhiyatining teran qatlamlarini ham ta'sirchan ochib berishga erishgan (Yo'ldoshev M. va boshq., 2021, 69). Bu yutuqlar adibning ijodiy individualligi va uslub novatorligini ko'rsatadi.

XULOSA

Nazar Eshonqul nasrining stilistik va sintaktik o'ziga xosliklarini o'rganish natijalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin. Birinchidan, yozuvchi o'z hikoya va qissalarida tilning emotsional va ekspressiv imkoniyatlarini keng safarbar etgan. Ritorik so'roq gaplar, emotsional ohangli jumlar, noan'anaviy inversiyalar va ellipsis kabi usullar muallif nutqini tuzishda muhim o'rin tutadi – bu vositalar orqali asar matni hissiy boylikka ega bo'lib, o'quvchiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, adib badiiy tasvir vositalaridan – o'xshatish, qarama-qarshi obraz va antitezalardan – samarali foydalanib, asarlarining mazmuniy qatlamlarini chuqurlashtiradi. Bu esa uning hikoyalari va qissalariga falsafiy teranlik bag'ishlab, o'quvchini mulohaza qilishga undaydi. Uchinchidan, Nazar Eshonqul o'z uslubida milliy adabiy an'analarni jahon adabiyoti yutuqlari bilan uyg'unlashtira olgan. Uning nasrida xalqona ifodalar bilan birga zamonaviy psixologik usullar birlashgan holda namoyon bo'ladi. Tahlil jarayonida aniqlanganidek, yozuvchining individual uslubini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri – sintaktik qurilishlarni o'rinli va original qo'llay olishidir. Jumla tuzilishidagi o'zgarishlar (inversiya), qisqa va uzun gaplarning navbati, dialog va monologlarning ohangdorligi – bularning barchasi Nazar Eshonqul asarlarining o'quvchiga ta'sir kuchini belgilaydi. Adib o'z asarlarida ma'no va tuyg'uni ifodalashning noan'anaviy yo'llarini topa olgani bilan ajralib turadi. Aynan shunday stilistik va sintaktik yangiliklar Nazar Eshonqul nasriga o'ziga xos individuallik baxsh etgan bo'lib, uni zamonaviy o'zbek adabiyotida avangard yozuvchi sifatida tanitdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Nazar Eshonqul o'zbek nasrining ifoda imkoniyatlarini yangi bosqichga ko'targan ijodkordir. Uning betakror uslubi misolida ko'rdikki, badiiy adabiyotda so'z qudrati nafaqat leksik ma'noda, balki sintaktik qurilishlar darajasida ham namoyon bo'ladi. Yozuvchi sintaksis me'morchiligi orqali o'z dunyoqarashi, tuyg'ulari va falsafiy mulohazalarini o'quvchiga yetkazadi. Nazar Eshonqul nasrining stilistik va sintaktik tahlili bizga adib ijodiy laboratoriyasiga nazar tashlash, uning badiiy mahorati sirlarini anglash imkonini berdi. Kelgusida Nazar Eshonqul ijodini boshqa yozuvchilar – masalan,

uning zamondoshlari yoki undan oldingi avlod vakillari – uslubi bilan qiyosiy o'rganish ham qiziqarli ilmiy yo'nalish bo'lishi mumkin. Bu orqali o'zbek adabiyotidagi uslubiy izlanishlar rivoji hamda mualliflik uslubining shakllanish qonuniyatlari haqida yanada chuqurroq tasavvur hosil qilish mumkin bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul o'ziga xos stilistik va sintaktik uslubi bilan nafaqat o'z davri o'zbek nasrining yangilanishiga hissa qo'shdi, balki milliy adabiyotimiz xazinasini boyituvchi nodir asarlar yaratdi. Uning badiiy tajribasi va uslub novatorligi keyingi avlod ijodkorlari uchun ham o'ziga xos maktab vazifasini o'tashi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent.: Fan, – 1983.
2. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli. –T.: Fan. – 1987.
3. Eshonqul N. Shamolni tutib bo'lmaydi. – Toshkent: Sharq. – 2005
4. Hakimova M.K. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. (Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi). Farg'ona. – 2004.
5. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. –Москва, 1970, с.67.
6. O'rinboev B. Qo'ng'urov R., Lapasov J., Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – T.: O'qituvchi, – 1990.
7. Shukurov R., Sintaktik parallellizmning uslubiy vazifalari. O'zbek tili va adabiyoti, 2004(2), 73-bet.
8. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –T.: Fan, – 2007.
9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –T.: Fan. – 2008
10. Yo'ldoshev M., Muhammadjonova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi: o'quv qo'llanma. –T.: Ishonchli Hamkor. – 2021.
11. Yoqubov, O. Oq qushlar, oppoq qushlar. –T.: Sharq, – 2012

REFERENCES

1. Abdullayev, A. (1983). Expression of Expressiveness in the Uzbek Language. Tashkent, Fan.
2. Abdullayev, A. (1987). The Syntactic Method of Expressing Expressiveness in Uzbek. Tashkent, Fan.
3. Eshonqul, N. (2005). One Cannot Catch the Wind. Tashkent, Sharq.
4. Hakimova, M.K. (2004). Lexical Units of Temporal Meaning in Uzbek and Their Text-Forming Potential. (PhD dissertation in Philological Sciences). Fergana.
5. Lotman, Y.M. (1970). The Structure of the Artistic Text. Moscow, Nauka.
6. Yoqubov, O. (2012). White Birds, Pure White Birds. Tashkent, Sharq.
7. O‘rinboev, B., Qo‘ng‘urov, R., Lapasov, J. (1990). Linguistic Analysis of the Artistic Text. Tashkent, O‘qituvchi.
8. Shukurov, R. (2004). Stylistic Functions of Syntactic Parallelism. Uzbek Language and Literature, (2), p. 73.
9. Yo‘ldoshev, M. (2007). Foundations of the Linguopoetic Analysis of Artistic Text. Tashkent, Fan.
10. Yo‘ldoshev, M. (2008). Linguopoetics of the Artistic Text. Tashkent: Fan.
11. Yo‘ldoshev, M., Muhammadjonova, S., Saparniyazova, M. (2021). Text Linguistics: A Textbook. Tashkent, Ishonchli Hamkor.